

Mamlakatimizda majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy choralar qo'yilgan va Prezidentimizning farmoni bilan aynan majburiy mehnatga qarshi kurashish bilan shug'ullanuvchi turli davlat organlari vakillaridan tuzilgan Odam savdosiga hamda majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasi va uning tarkibida majburiy mehnatga qarshi kurashish kichik komissiyalari o'z faoliyatini boshlagan. Shu bilan birga Urganch davlat universiteti ham majburiy mehnatga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy choralarni ko'rgan. Unga ko'ra: Universitetda o'quvchi talabalar va ishchi hodimlarni majburiy mehnatga majburan jalib qilish mumkin emas. Bu nizoni buzgan mansabdor shaxslar qonun oldida javob beradi.



Universitetda O'zbekistonning urf-odatga aylanib qolgan hashar tadbirlarini qanday tartibda tashkillashtirilishidan qat'iy nazar bu majburiy mehnatga jalb qilingan hisoblanadi. Shuning uchun har bir ishchi va talaba o'zining vazifasidan tashqaridagi ishlarga jalib qilinmaydi.